



# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ILMIY MAKTABI

DEMOGRAPHY

# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

## LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

**2023 yil, 3-son**

Volume 4, Issue 3, 2023



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI



**LABORECONOMICS.UZ**

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

*№ 3-2023*

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ  
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis:** “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

**Tahririyat manzili:**

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,  
49 uy

**Elektron manzil:** [ilmiymaktab@gmail.com](mailto:ilmiymaktab@gmail.com)

**Jurnal web-sayti:** [www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**Bog‘lanish uchun telefonlar:**

+998998818698

**TOSHKENT-2023**

**Tahririyat Kengashi raisi:**

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

**Tahririyat Kengashi a'zolari:**

(Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.  
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.  
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof  
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof  
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof  
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.  
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.  
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.  
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.  
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)  
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.  
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.  
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.  
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

**Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)  
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)  
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)  
Keynz Miller (AQSh)  
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)  
Masato Xivatari (Yaponiya)  
Gerxard Feldmayer (Germaniya)  
Eko Shri Margianti (Indoneziya)  
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)  
Rohana Ngah (Malayziya)  
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)  
Teguh Dartanto (Indoneziya)  
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)  
Muhammed Xoliq (Pokiston)  
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

**Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief):** G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

**MUNDARIJA (CONTENTS)**

<b>INSON RESURLARINI BOSHQARISH</b>		
<b>S.B.G'oyipnazarov</b>	<i>Mahalliy davlat hokimiyati organlarida inson resurslarini boshqarishning xalqaro tajribasi .....</i>	5-21
<b>O.T.Astanakulov</b>	<i>Davlat xizmatida xodimlar faoliyati samadorligini baholash .....</i>	22-35
<b>M.A.Qayumova</b>	<i>Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar motivatsiyasining muammolari va uning tahlili .....</i>	36-45
<b>MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI</b>		
<b>Z.D.Adilova</b>	<i>Turistik xizmatlar bozorida bandlikni tartibga solish va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy usullari ...</i>	46-56
<b>X.F.To'xtayeva</b>		
<b>M.M.Mirzakarimova</b>	<i>O'zbekistonda mehnat bozori muammolari .....</i>	57-68
<b>Sh.O.Olimjonova</b>		
<b>S.A.Otaqo'ziyeva</b>	<i>O'zbekiston mehnat bozorida raqamli texnologiyalar mutaxassislariga talab va taklifni baholovchi mezonlar tizimi .....</i>	69-80
<b>F.A.Doniyorova</b>	<i>Aholi bandligini ta'minlashning yo'nalishlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) .....</i>	81-88
<b>DEMOGRAFIYA</b>		
<b>R.I.Nurimbetov</b>	<i>O'zbekistonning ayrim demografik masalalari va aholi bandligini manfaatdorlik indeksi asosida baholash .....</i>	89-101
<b>A.M.Ismailov</b>		
<b>D.A.Abduxoliqova</b>	<i>O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi demografik siyosati .....</i>	102-113
<b>O.A.Nasretdinova</b>		
<b>INSON KAPITALI</b>		
<b>S.E.Xolmuratov</b>	<i>Пути совершенствования образовательной системы Республики Узбекистан путем применения «финского чуда» .....</i>	114-126
<b>J.S.Xolmuratov</b>		
<b>N.B.Ulug'muradova</b>	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitali rivojlanishini boshqarishni tashkiliy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash.....</i>	127-135
<b>TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH</b>		
<b>X.Sh.Kaxramonov</b>	<i>Исследование факторов, воздействующих на эффективное управление жилищным фондом города .....</i>	136-146
<b>D.A.Ishanxo'jayeva</b>	<i>Модель государственно-частного партнерства в сфере туризма .....</i>	147-163
<b>MUNOSIB MEHNAT</b>		
<b>F.O'Masharipov</b>	<i>Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini raqamli texnologiyalar asosida monitoring qilish istiqbollari.....</i>	164-175



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



### RAQAMLI IQTISODIYOTDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNI TASHKILY-IQTISODIY QO'LLAB-QUVVATLASH

**Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Inson resurslarini boshqarish kafedrasida dosenti, PhD

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a29](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a29)

**Annotasiya.** Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar asosida ma'lumotlar almashishi, uning tarqalishiga asoslangan bo'lib, uning nazariy tavsifi ko'plab kompaniyalar o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshirishga imkon beradigan tuzilmasi tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion tizim, innovatsion kompaniyalar, innovatsion rivojlanish strategiyasi, raqamli kompetensiyalar, tizimli yondashuv, raqamli infratuzilma.

### ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Улугмурадова Нодира Бердимурадовна**

Самаркандский государственный университет

имени Шарофа Рашидова

Доцент кафедры «Управления человеческими ресурсами», PhD

**Аннотация.** В данной статье исследуется обмен информацией, основанный на инновационных технологиях, основанный на ее распространении, и его теоретическое описание, структура, позволяющая осуществлять отношения между многими компаниями.

**Ключевые слова:** инновационная система, инновационные компании, стратегия инновационного развития, цифровые компетенции, системный подход, цифровая инфраструктура.

### ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC SUPPORT FOR THE MANAGEMENT OF THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL IN THE DIGITAL ECONOMY

**Ulugmuradova Nodira Berdimuradovna**

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Associate Professor of the Department of

“Human Resources Management”, Ph.D

**Abstract.** This article explores the exchange of information based on innovative technologies, based on its dissemination, and its theoretical description, a structure that allows relationships between many companies.

**Keywords:** innovative system, innovative companies, innovative development strategy, digital competencies, systemic approach, digital infrastructure.

## **Kirish**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy munosabatlar asosan raqamli ishlab chiqarish va raqamli xizmat ko'rsatish jarayonlarini tobora keng tarqalishiga olib kelmoqda. Qiymat yaratuvchilar o'rtasida tarmoq bo'yicha o'zaro munosabatlarni amalga oshirish innovatsion rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan. Innovatsion texnologiyalar asosida ma'lumotlar almashishi, uning tarqalishiga asoslangan bo'lib, uning nazariy tavsifi ko'plab kompaniyalar o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshirishga imkon beradigan tuzilma sifatida zamonaviy iqtisodchilarning asarlarida o'z aks topgan.

Tarmoq munosabatlarini rasmiylashtirish mexanizmi sifatida innovatsion tizim arxitekturasi ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlik va raqobatni muvofiqlashtirish hamda innovatsion tizimda ishtirok etish uchun rag'bat yaratish muammolari nuqtai nazaridan o'rganiladi

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Inson kapitalini rivojlantirish ustuvorligi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham, barqaror iqtisodiyotlar va innovatsion rivojlanishni amalga oshirayotgan tizimlar uchun ham universal xususiyatga egadir. Bu jahonning yetakchi olimlari va xalqaro tashkilotlarning ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan juda ko'p tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan.

Taniqli iqtisodchi olim T.Shuls asarida inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi, inson kapitaliga investisiya kiritish, inson kapitalini mehnat bozorida sotish, mehnat salohiyati, inson kapitalining rivojlanish omillari, inson kapitalining rivojlanish darajalari kabi masalalar tadqiq qilingan<sup>19</sup>.

Shuningdek, G.Bekkerning asarida ijtimoiy rivojlanish nazariyasining metodologik asoslari, iqtisodiy o'sish va inson taraqqiyoti, inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi, inson taraqqiyotini baholashning asosiy mezonlari va ularning xususiyatlari, insonni rivojlantirishning asosiy mezonlari, insonni rivojlantirish konsepsiyasi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilgan<sup>20</sup>.

Ye.A.Merzlyakova va T.S.Kolmykovalar «Chiziqli» iqtisodiyotning neoklassik konsepsiyasidan voz kechishning dolzarbligini va iqtisodiy rivojlanishning chiziqli modelini joriy etishdan cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan va mahsulotni diversifikasiya-lashga yo'naltirilgan yangi shakllarga o'tishning ahamiyatiga e'tibor berilgan. Bu esa kelajak avlodlar rivojlanishiga zarar bermasdan, aholining hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida raqamli iqtisodiyotda inson kapitali rivojlantirishini boshqarishni tashkiliy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va

---

<sup>19</sup> Schultz, T. W. Investment in Human Capital / T.W. Schultz // The American Economic Review. 1961. Vol. 51. Pp. 1–17.

<sup>20</sup> Bekker G. Inson kapitali (kitobning boblari). Inson kapitaliga investitsiyalar tushumiga ta'siri. AQSh: Iqtisodiyot, siyosat, mafkura, 1993 y. - № 11.



solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

**Maqolaning maqsadi.** Innovasion tizimning chizmasida ishtirokchi kompaniyaning foydasi, umuman, butun model ichida o‘zaro ta‘sir orqali ko‘payadi. Bitta innovatsion korxonaga uchun bozorda raqobatbardosh ustunlikni ta‘minlaydigan barcha elementlarni birlashtirish qiyin bo‘lgani uchun, tarmoqlar hamkorlikda ishtirok etish afzalliklarga ega hisoblanadi.

Innovasion tizim arxitekturasini turli xil ishtirokchilar: investorlar, davlat organlari, moliya-kredit tashkilotlari, sug‘urta tashkilotlari, yetkazib beruvchilar, vositachilar va distribyutorlar, mijozlar, tadqiqot muassasalari, qidiruv laboratoriyalaridan tashkil topgan ilmiy blok, universitetlar tashkil etadi (1-rasm).

Innovasion tizim ta‘minot-ishlab chiqaruvchi-iste‘molchi zanjirida bevosita ishtirok etuvchi subyektlar doirasini kengaytirish orqali qiymat yaratish konsepsiyasini to‘ldiradi. Tizimga an‘anaviy qiymat zanjiriga kirmaydigan ishtirokchilar, shu jumladan kichik innovatsion kompaniyalar, moliyaviy va sug‘urta institutlari, autsorsing kompaniyalari, innovasiyalarni muvofiqlashtirish tuzilmalari va boshqalar kirishi mumkin.



**1-rasm. Raqamli transformasiyalashish sharoitida innovatsion tizim arxitekturasi<sup>21</sup>**

Asosiy tizim innovatsion tizimning markazida joylashgan texnologiya bo‘yicha yetakchi kompaniya hisoblanadi. Bu o‘z innovasiyalarining samaradorligini oshirish uchun texnologiya, xizmatlar, axborotni qo‘llab-quvvatlash vositalari kabi tizim imkoniyatlaridan foydalangan boshqa barcha ishtirokchilar tomonidan qadrlanadi. Bitta tashkilot bir nechta tegishli tizimlarda ishtirok etishi va har birida har xil rol o‘ynashi mumkin.

<sup>21</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Zamonaviy innovatsion faol kompaniyalar o‘z-o‘zidan mahsulot yaratishga yoki muvaffaqiyatli rivojlanayotgan tizimga qo‘shilishga harakat qilmoqdalar. Bugungi kunda Apple, Google, Siemens, Microsoft, IBM, Walmart kabi yirik kompaniyalar jahonning yetakchilari sifatida bozorda samarali ishlaydigan keng ko‘lamli va murakkab innovatsion tizimlarni yaratgan kompaniyalardir.

Shunday qilib, innovatsion tizim – bu o‘z ishtirokchilari va ularning resurslari o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimini rasmiylashtiradigan o‘zaro bog‘liq yaxlit tuzilma bo‘lib, uning maqsadi innovatsion madaniyatni shakllantirish, innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni realizatsiya qilishga qaratilgandir.

Innovation tizim kompaniyalarga hech kim yaratolmaydigan qiymatni yaratish imkonini beradi<sup>22</sup>. Har bir ishtirokchining mahsuldorligi va raqobatbardoshligi umuman tizimning samaradorligi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan, ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi tizimlar chegaralarini o‘rganishdir. Innovation tizimlarning tashkiliy chegaralarini o‘rganish tarmoqqa kiruvchi tashkilotlarning atrof-muhit bilan o‘zaro ta‘sirining zamonaviy xususiyatlari haqidagi nazariy tushunchani kengaytiradi, bu esa motivatsiya, rag‘batlantirish, innovatsiyalar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Respublikamizda innovatsion rivojlanish strategiyasini 2030-yilgacha bo‘lgan konsepsiyasiga muvofiq, ushbu rivojlanish strategiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlaridan tashkil topgan Milliy innovatsion tizimning shakllanish mexanizmi va ularning elementlarini o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi 2-rasmda keltirilgan. Hozirgi vaqtda respublikamizning zamonaviy sohalar va tarmoqlarida innovatsiyalardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojning ortishi dolzarb bo‘lib, bu mamlakatimiz korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy innovatsiyalarni o‘zlashtirish vazifasini qo‘yadi.

Yevropa Ittifoqning statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, oltmish milliondan ortiq yevropaliklar yetarli raqamli ma‘lumotlarga ega emas. 2020-yilda raqamli ko‘nikmalarga ega odamlar yetishmasligi tufayli axborot-kommunikatsiya sohasida deyarli 750 ming kishi ishsiz qoladi. Yevropalik ish beruvchilarning qariyb 40 foizi innovatsion ko‘nikmalarga ega bo‘lgan xodimlarni topishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar haqida xabar berishadi<sup>23</sup>. Qolaversa, 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar orasida 15 foiz ishsiz bo‘lib, yuqori malakali yoshlarning mahorat darajasi va iqtidoriga mos kelmaydigan sohalarida ishlashi haqiqatdir.

Shunga ko‘ra, raqamli kompetensiyalarning rivojlanmaganligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo‘nalishini amalga oshirish uchun jiddiy


---

<sup>22</sup> Adner R. «Match your innovation strategy to your innovation ecosystem», Harvard Business Review. -2006, Vol. 84 - No. 4. - p. 98.

<sup>23</sup> European Commission (2019). Skills Agenda for Europe. - Режим доступа: <https://ec.europa.eu/social/main.jsp?catId=1223&langId=en&moreDocuments=yes>



muammoga aylanmoqda. Ta’kidlash kerakki, raqamli kompetensiyalar tuzilmasini shakllantirishga tizimli yondashuvni shakllantirish zarur, u nafaqat instrumental ko’nikmalarni, balki raqamli savodxonlikni, ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni, muloqot tajribasini va birgalikdagi faoliyatni ham o’z ichiga olishi kerak.




**2-rasm. O’zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlanish modeli<sup>24</sup>**

Inson kapitaliga sarmoya kiritish va umri davomida o’qishga keng imkoniyat yaratish juda muhimdir. Mavjud vaziyatdan ko’rinib turibdiki, raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga kiritish, shuningdek, innovatsion ta’lim ekotizimlarini yaratish talab qilinadi. Shubhasiz, o’qituvchilarning roli oshadi, shuning uchun ularning kasbiy o’sishiga va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga sarmoya kiritish juda muhimdir. O’qitishning innovatsion usullaridan foydalanish o’quvchilarning ijodiy fikrlash, ijodkorlik, qiziquvchanlik ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va muammolarni bartaraf etish yo’llarini izlashga yordam beradi. O’quv

<sup>24</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari, raqamli baholash, bashoratli tahlil va virtual haqiqat yanada keng tarqaladi. O’qitish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish o’quvchilarning yutuqlarini baholashning yangi usullarini qo’llab-quvvatlashi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishni boshqarish jarayonini tashkil etish uning yangi tizimini belgilovchi omillarni tasniflash bilan bog’liq. Tadqiqot jarayonida shaxsiy (yoshi, ta’lim darajasi va daromadi) va ekologik (ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, raqamli muhit, ta’lim ekotizimlarining shakllanishi) omillari aniqlandi. Qolaversa, aynan inson kapitalining raqamli kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish asosini aynan ekologik omillar tashkil qiladi.



**3-rasm. O'zbekistonda raqamli rivojlanishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari**<sup>25</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>26</sup>. Ushbu farmonga asoslangan holda, bizning fikrimizcha, respublikamiz amaliyotida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi 3-rasmdagi holatlarga e'tibor qaratish lozim (3-rasm).

<sup>25</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<sup>26</sup> <https://lex.uz/docs/5030957>

Hozirgi paytda axborot almashinuvi jahondagi globallashuv axborotlashgan sivilizasiya shakllanishining tarkibiy qismi sifatida avvalgi zamon sharoitidan butunlay farq qiladi. Avval har bir fuqaro asosan o'z davlati va millati axborot tizimi ta'sirida rivojlangan bo'lsa, endi jahon miqyosida butun insoniyat yaratgan axborotlar oqimining kuchli ta'siri ostida shakllanmoqda<sup>27</sup>.

«Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlarining tahlildan ko'rinib turibdiki, 2030-yilda Respublika hududlarining yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog'i bilan qamrov darajasi 100 %ni, aholi punktlarining keng polosali mobil aloqa tarmog'i bilan qamrov darajasi 100 %ni tashkil etmoqda (1-jadval).

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning davlat tomonidan raqamli transformasiyasiga ko'maklashish quyidagilar asosida ta'minlanadi:

– aholi, biznes va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish muhitini o'zgartirish;

– ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish, shuningdek, uning faoliyati samaradorligi va xavfsizligini ta'minlash;

– raqamli iqtisodiyot uchun kadrlarni shakllantirish;

– raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularni realizasiya qilish loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish.

Inson kapitalining raqamli transformasiyasini ta'minlashda kadrlarni tayyorlash tizimi alohida ahamiyatga ega bo'lib, uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari:

1. Raqamli iqtisodiyotni malakali kadrlar bilan ta'minlash.

2. Matematika, informatika va raqamli iqtisodiyot texnologiyalari bo'yicha iqtidorli maktab o'quvchilari va talabalarini qo'llab-quvvatlash.

3. Aholiga raqamli savodxonlik va raqamli iqtisodiyotning kompetensiyalarini rivojlantirishda ko'maklashish.

Raqamli iqtisodiyotni kadrlar bilan ta'minlash muammosini hal etish kompetensiya modelini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, tegishli ta'lim loyihalarini grantlar bilan qo'llab-quvvatlashga asoslangan.

Kasbiy ta'lim dasturlarini takomillashtirish va yangi o'qitish tizimlarini joriy etish iqtisodiyotni zarur kadrlar bilan shakllangan raqamli kompetensiyalar asosida ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish tufayli ish o'rinlarining qisqarishi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurligini keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra, strategiya doirasida umumta'lim maktablari va biznes-inkubatorlari va akseleratorlarini rivojlantirishga ko'maklashish yakuniy malaka ishi doirasida yaratilgan

---

<sup>27</sup> <https://einfolib.uz/post/ahborotlashgan-jamiyatda-ahborot-almashinuvining-uziga-hos-hususiyatlari>

startapni yanada rivojlantirish huquqini me’yoriy mustahkamlashni nazarda tutadi.

**1-jadval**

**«Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari**

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	Joriy holati 2022 y.	Yillar kesmiida	
				2025	2030
1.	Respublika bo‘ylab qurilgan optik tolali aloqa tarmog‘ining uzunligi	ming km	70	120	250
2.	Respublika hududlarining yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan qamrov darajasi	Foiz	74	85	100
3.	Ijtimoiy obyektlarning yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta‘minlanganlik darajasi	Foiz	100	100	100
4.	Uy xo‘jaliklarining keng polosali Internet jahon axborot tarmog‘i bilan ta‘minlanganlik darajasi	Foiz	74	85	100
5.	Aholi punktlarining keng polosali mobil aloqa tarmog‘i bilan qamrov darajasi	Foiz	100	100	100
6.	Elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida «Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi» ning samaradorlik ko‘rsatkichi	ball (0-1 oralig‘ida)	0,70	0,75	0,86
7.	Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlariga nisbatan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatlarining ulushi	Foiz	60	70	90
8.	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali elektron davlat xizmatlariga nisbatan mobil qurilmalar yordamida foydalanish imkoniyatiga ega elektron davlat xizmatlari ulushi	Foiz	30	42	60
9.	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladigan tranzaksiyaviy xizmatlar ulushi	Foiz	45	60	75
10.	Korxonalar resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlar ulushi	Foiz	40	65	100
11.	Onlayn bank xizmatlari foydalanuvchilari soni (yuridik va jismoniy shaxslar)	mln nafar	15	17	20
12.	Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining inkubasiya va akselerasiya dasturlariga kiritilgan startap-loyihalar soni	Dona	250	700	2 300
13.	Axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash bo‘yicha oliy ta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalariga qabul kvotalar soni	Ming	12	15	20

Mutaxassislarining ta’kidlashicha, vaqt o’tishi bilan mehnat bozorida diplom qiymatining pasayishi kuzatiladi, buning natijasida ish beruvchilarda rahbarlik qilishi mumkin bo‘lgan potensial xodimlarning malakasini mustaqil baholash zarurati paydo bo‘ladi. Strategiyani amalga oshirish jarayonida barcha kasbiy faoliyatning tasdiqlangan natijalarini hisobga olgan holda, uning rivojlanish yo‘nalishidan qonuniy rezyume sifatida foydalanish imkoniyati bilan shaxsning kompetensiyalari profilini shakllantirishning samarali mexanizmini yaratish rejalashtiriladi.

Iqtisodiy makonning raqamli transformasiyasi davlat va mahalliy boshqaruv organlarining mavjud mutaxassislari hamda ijtimoiy soha xodimlarini qayta tayyorlashni taqozo etadi.

Iqtisodiy soha va tarmoqlarini raqamlashtirish natijasida yuzaga kelgan mehnat bozori tuzilishidagi istiqboldagi o'zgarishlar matematika, informatika va raqamli texnologiyalar sohasidagi iqtidorlarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tizimini yaratish muhimligini ifodalaydi.

### **Xulosa va takliflar**

1. Innovasion tizim ta'minot-ishlab chiqaruvchi-iste'molchi zanjirida bevosita ishtirok etuvchi subyektlar doirasini kengaytirish orqali qiymat yaratish konsepsiyasini to'ldiradi. Tizimga an'anaviy qiymat zanjiriga kirmaydigan ishtirokchilar, shu jumladan kichik innovatsion kompaniyalar, moliyaviy va sug'urta institutlari, autsorsing kompaniyalari, innovatsiyalarni muvofiqlashtirish tuzilmalari va boshqalar kirishi mumkin.

2. Inson kapitaliga sarmoya kiritish va umri davomida o'qishga keng imkoniyat yaratish juda muhimdir. Mavjud vaziyatdan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish, shuningdek, innovatsion ta'lim ekotizimlarini yaratish talab qilinadi. Shubhasiz, o'qituvchilarning roli oshadi, shuning uchun ularning kasbiy o'sishiga va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga sarmoya kiritish juda muhimdir.

3. Raqamli iqtisodiyotni kadrlar bilan ta'minlash muammosini hal etish kompetensiya modelini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, tegishli ta'lim loyihalarini grantlar bilan qo'llab-quvvatlashga asoslangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Investment in Human Capital / T.W. Schultz // The American Economic Review. 1961. Vol. 51. Pr. 1-17.

2. Bekker G. Inson kapitali (kitobning boblari). Inson kapitaliga investitsiyalar tushumiga ta'siri. AQSh: Iqtisodiyot, siyosat, mafkura, 1993 y.

3. Kolmikova T.S., Merzlyakova Ye.A. Sirkulyarnoye vosproizvodstvo i ekologicheskiye innovatsii v obespechenii ustoychivogo rosta regionalnoy ekonomiki // Region: sistema, ekonomika, upravleniye. - 2019, №3 (46). - Kolmikova T.S., Zelenov A.V. Sifrovaya kompetentnost chelovecheskogo kapitala v usloviyax razvitiya innovatsionnykh ekosistem // Innovatsii i investitsii. - 2020, № 3. - S. 13-16

4. European Commission (2019). Skills Agenda for Europe: <https://ec.europa.eu/social/main.jsp?catId=1223&langId=en&moreDocuments=yes>

5. <https://lex.uz/docs/5030957>

6. <https://einfolib.uz/post/ahborotlashgan-jamiyatda-ahborot-almashinuvining-uziga-hos-hususiyatlari>



# Tashkent state university of economics



+998 99 881 86 98



Tashkent, Uzbekistan



ilmiymaktab@gmail.com



www.laboreconomics.uz